**XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2025-yil 27-iyun VII-12-97-6-0-K/25 Namangan viloyati

**“Namangan suv ta'minoti” aksiyadorlik jamiyatining ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlari (tariflari) to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 22-iyul kunidagi “Ichimlik suv ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi O‘RQ-784-son Qonunning 12-bob 46-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6074-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-apreldagi “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 204-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Namangan suv ta’minoti” aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 3-iyundagi 01/1280 son, Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-iyun 02/14-32/397-son xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, $16^2$- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari viloyat Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. “Namangan suv ta’minoti” aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 3-iyundagi 01/1280-son, Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-iyun 02/14-32/397-son xatlari hamda “Namangan suv ta’minoti” aksiyadorlik jamiyati direktori M.Xodjiyevning ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlar (tariflar) yuzasidan taqdimoti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Namangan suv ta’minoti” aksiyadorlik jamiyatining ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlar (tariflar)i ***1-ilova***ga hamda viloyatning ichimlik suvi yetib bormagan hududlariga jamiyat tomonidan maxsus avtotransport vositalarida yetkazib beriladigan ichimlik suv narxlar (tariflar)i ***2-ilova***ga muvofiq ma’qullansin.

3. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024 yil 7-martdagi “Namangan suv ta’minoti” aksionerlik jamiyatining ichimlik suvi va kanalizatsiya xizmatlari xizmatlari tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-42-26-6-0-K/24-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingandan keyin o‘n besh kun o‘tgach kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Ikramov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari G‘.Djamalov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



MUMINOV SOLIJON DJALILOVICH

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 27-iyundagi
VII-12-97-6-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**“Namangan suv ta’minoti” AJ tomonidan taklif etilgan 1 $m^3$ ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlar (tariflar)i**

| Xizmat turi | Amaldagi narx (ta'rif) (so‘mda) | Jamiyat tomonidan taklif etilayotgan narx (ta'rif) (so‘mda) | Narxlarni (ta'riflarni) tartibga solish organi taklifi (QQS siz, so‘mda) | Narxlarni (ta'riflarni) tartibga solish organi taklifi (QQS bilan, so‘mda) |
|---|---|---|---|---|
| **Ichimlik suv yetkazib berish narxi** | | | | |
| Aholi uchun 1$m^3$ | 3 500 | 5 300 | 4 900 | 5 488 |
| Budjet tashkilotlari uchun 1$m^3$ | 7 000 | 10 000 | 9 500 | 10 640 |
| Ulgurji tashkilotlari uchun 1$m^3$ | 7 000 | 10 000 | 9 500 | 10 640 |
| **Oqava suv xizmati narxi** | | | | |
| Aholi uchun 1$m^3$ | 800 | 1 800 | 1 700 | 1 904 |
| Budjet tashkilotlari uchun 1$m^3$ | 975 | 2 400 | 2 200 | 2 464 |
| Ulgurji tashkilotlari uchun 1$m^3$ | 975 | 2 400 | 2 200 | 2 464 |

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 27-iyundagi
VII-12-97-6-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**"Namangan suv ta’minoti" AJ tomonidan taklif etilayotgan ichimlik suvi yetib bormagan hududlariga jamiyat tomonidan maxsus avtotransport vositalarida yetkazib beriladigan ichimlik suv narxlar (tariflar)i**

| № | Iste’molchi toifasi | Suv olish punkitidan yetkazib berish joyigacha o‘rtacha masofa (km.) | O‘rtacha tarif (QQS siz) | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | so‘m/tn-km* (QQS siz) | so‘m/tn** (QQS siz) | so‘m/tn (QQS bilan) |
| 1 | Aholi uchun | 5 | 7 003 | 35 017 | 39 219 |
| 2 | Budjet tashkilotlari uchun | 5 | 7 567 | 37 833 | 42 373 |
| 3 | Ulgurji iste’molchilar uchun | 5 | 7 567 | 37 833 | 42 373 |

---

** Suv olish joyidan 1 km masofaga 1 tonna suv yetkazib berish narxi (QQS siz).*

*** Suv olish joyidan yetkazib berish joyiga o‘rtacha borish-kelish masofasi 5 km.gacha bo‘lganda (QQS siz).*

**** Aholi uchun kichik xajmdagi suv idishlariga litrlab quyib berishda 1 litr uchun 35 so’m.*

*Iste’molchilarga QQS 12 % qo‘shib yoziladi.*